

Toshkent shahridagi **Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti** talabalarining “Talabalarning muzeylarga tashrifi” loyihasi doirasida buyuk adib **Abdulla Qodiriy** uy-muzeyiga tashrif amalga oshirilgani yuzasidan

BAYONNOMASI

02.02. 2026-yil.

TXVU

2026-yil 02 fevral kuni Toshkent Xalqaro Vestminster Universitetining “Madaniyat va ijodkorlik markazi” bo‘limi tashabbusi bilan “Talabalarning muzeylarga tashrifi” loyihasi doirasida talabalarning Abdulla Qodiriy uy-muzeyiga tashrifi tashkil etildi.

Mazkur tadbir talaba-yoshlarning buyuk adiblar hayoti va ijodi, ularning ma’naviy merosi hamda milliy adabiyotimiz rivojiga qo‘shgan hissasini chuqur o‘rganish maqsadida o‘tkazildi. Tashrif davomida talabalar muzey xodimlari tomonidan taqdim etilgan tarixiy va qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishdilar.

Talabalar adibning shaxsiy buyumlari, qo‘lyozmalari, ijodiy faoliyatiga oid eksponatlar bilan yaqindan tanishib, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz va madaniyatimizga bo‘lgan hurmat va e’tiborlarini yanada mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar.

Tadbir yakunida ishtirokchilar esdalik uchun suratga tushdilar hamda tashrif katta taassurotlar bilan yakunlandi.







Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlash bo'yicha birinchi prorektor:

N.Kodirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova